

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

LEKSIKOLOGIYA VA TIL TASNIFI

Nuraliyeva Ozoda

Boboyeva Sarvinoz

Ibrohimova Mahbuba

Maktabgacha va Boshlang'ich ta'limda

xorijiy til yo'nalishi 2-kurs talabalari

Anotatsiya: Tilshunoslik fanidagi leksikologiya bo'limini o'rganish shuningdek uni qo'llash. Til haqidagi tushuncha va uni hayotimizdagi o'rni.

Kalit so'z: Leksikologiya bo'limi haqida tushuncha. Til haqida tushuncha

Leksikologiya Tilshunoslik fanida muhim bo'limlardan biri hisoblanadi, shuning uchun ham ko'p tilshunoslar leksikologiya bo'limi bilan shug'ullanishadi. Leksikologiya tilshunoslikning til lug'at tarkibi ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi hisoblanadi. Leksikologiya har bir so'zni yolg'iz holda emas balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasalogiya yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda so'z yasalihi haqidagi ta'limot kabi sohaları bilan chambarchas bog'liqdir, mana shunday xususiyatlari bilan leksikologiya tilshunoslikda muhim ro'l o'ynaydi. Leksikologiyani asosiy muammolaridan biri so'zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir. Leksikologiyada so'zlarning ma'no jihatidan o'zaro bog'langan ya'ni manosemiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya so'z ma'nolarining erkin yoki bog'liq holda bo'lishi kabi masalalar ham o'rganiladi. Leksika muayyan bir tizim sifatida ko'ringanda so'z ma'nolarini va tushunchalarning o'zaro bog'liq holda bo'lishi ko'zda tutiladi. Leksikologiya lug'at tarkibining amalda ishlatilishi va taraqqiyot qonuniyatlarini so'zlarning uslubiy jihatdan tasniifiy tamoyillarini ishlab chiqadi. Shuningdek, so'zlashuv va adabiy tillarda foydalanish me'yorlarini professionalizm dialektizm arxaizm neologizm leksikalashgan birikmalarini me'yorlashtirish kabi masalalarni tahlil etadi hamda bular haqida muayyan xulosalar chiqaradi. O'zbek leksigrafiyasi tarixi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati turk" asaridan boshlangan deb aytish mumkin. Ushbu lug'at faqat so'zlar va ularning ma'nolarini tavsiflab qolmay turkey xalqlar tarixi, urf odatlari geografik joylashuv kabi keng ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Shu bilan birga ikki tilni turkiycha va arabcha lug'atlardandir. Lug'atlar ma'naviy va madaniy sohada muhim o'rin egallaydi, ularda jamiyatning ma'lum davrida erishgan bilimlari aks

etadi. Lug'atlar juda qadim davrlarda paydo bo'lgan leksiografiya hozirgi davrda ma'lumot axborot to'plash va uni o'quvchiga yetkazishda muayyan ahamiyatga ega hisoblandi.

Inson ona tili orqali dunyoni o'zlashtiradi tarixni o'rganadi o'zligini taniydi ma'rifatli bo'ladi shu tilda umr bo'yi muloqot qiladi, faoliyat yuritadi shuning uchun o'z tilini mukammal bilishi darkor. Til deb murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o'rganish ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Til asosan muloqot vositasi hisoblanadi. Tilni o'rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi. Jahon tillari miqdorini aniqlash uchun til va sheva orasida farq o'rnatish zarur shunga qaramay tillar soni 7 ming hisoblanadi. Tabiiy til so'zlashuv yoki imo ishora orqali tarqaladi barcha tillar semiozisga ya'ni belgilarni tegishli ma'nolarga bog'lash jarayoniga tayanadi. Og'zaki va imo ishora tillari ramzlar ketma ketligini so'z yoki morfema qilib shakllantiruvchi fanologik tizim hamda so'z va morfemalar ketma ketligidan ibora va gaplarni hosil qiluvchi sintaktik tizimni o'z ichiga oladi. Til konkret nutq hodisalari ayrim gaplar hikoyalar bir necha kishining suhbatlari, jumladan og'zaki yoki mexanik usulda takrorlanadigan yozuv orqali qayd etiladigan nutq hodisalarida mavjud bo'ladi. Til vaqt o'tishi bilan o'zgaradi ularning evolutsiyasini qadimgi tillar keyingi bosqichlar sodir bo'lishi uchun qanday belgilarga ega bo'lganini aniqlovchi va ularni zamonaviy tillarga taqqoslovchi tarixiy tilshunoslik o'rgandi. Umumiy ajdoddan keluvchi tillar guruhiga tillar oilasi deyiladi. Bugungi kunda jahonda keng tarqalgan tillar jumladan inglizcha, portugolcha, Ruscha va hind yevropa tillari kiradi. Tilshunoslar fikriga ko'ra bugun mavjud tillarning 50 dan 90%gachasi 2100 yilga kelib yo'qolib ketadi. Shunday qilib nafaqat fikrni ifodalash balki ijtimoiy ongda fikrlarni shakllantirish mustahkamlash vositasi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Tilshunoslikga kirish. Qo'llanma. Xolmonova. Z. T. T 2000
2. Tilshunoslikga kirish M. Irisqulov 1992 Indiana universiteti
3. Berdiyeva X. Xo'jayev P. Yo'ldoshev B umumiy tilshunoslik Samarqand 1974
4. Dadaboyev H. A Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi T 2004